

UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARB MASALALARI: JAHON TAJRIBASI ASOSIDA

Akramova Feruza Akmalovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti,
Psixologiya kafedrası professori,
psixologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimidagi mavjud psixologik xizmatning dolzarb masalalari keltirilgan, shu orqali ta'lim tizimi ishtirokchisi bo'lmish o'quvchi shaxsini turli salbiy holatlarga duch kelmasligini ta'minlash zarurati asoslab berilgan.

Tayanch iboralar: umumiy o'rta ta'lim, psixologik xizmat, psixologik maslahat, ishonch telefonlari, sog'lom muhit, salbiy xolatlar, psixolog.

ВОПРОСЫ АКТУАЛЬНОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В СИСТЕМЕ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: НА ПРИМЕРЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА

Аннотация. В статье обосновывается актуальные вопросы психологической службы в системе общего среднего образования, что позволит учащимся, являющимся участниками образовательной системы, избежать возникновения различных негативных ситуаций.

Ключевые слова: общее среднее образование, психологическая служба, психологическое консультирование, телефоны доверия, здоровая среда, негативные ситуации, психолог.

THE RELEVANCE OF PSYCHOLOGICAL SERVICE IN THE SYSTEM OF GENERAL SECONDARY EDUCATION: BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE

Abstract. This article substantiates the need to improve the current psychological service in the general secondary education system, which will enable students participating in the educational system to avoid various negative situations.

Keywords: general secondary education, psychological service, psychological counseling, helplines, healthy environment, negative situations, psychologist.

Ta'lim tizimida psixologik xizmat ko'rsatuvchi psixologik markazlar amaliyoti Isroil, AQSh, Belgiya kabi davlatlarda mavjud. Isroil davlatida ta'lim tizimidagi psixologik xizmat tuman yoki shaharlarda tashkil etiluvchi psixologik markazlar tomonidan olib boriladi. Belgiyada ham bu kabi amaliyot mavjud bo'lib, 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Maorif Vazirligi tashabbusi bilan tajriba tariqasida bir nechta psixologik markazlar yaratilib, hozirgi kunda ularning soni 25

tani tashkil etadi. Tashkiliy-moliyaviy jixatdan bu markazlar Maorif vazirligi psixologik bo'limiga bo'ysunadi. Markaz xodimlariga tegishli ta'lim muassasasiga birlashtiriladi. Xodim xizmat vaqtining bir qismini o'zi birlashtirilgan ta'lim muassasasida, qolgan qismida esa markazdagi xizmat xonasida bolalar uchun qabul tashkil etadi.

Ispaniyada psixologlar mahalliy hokimiyat yoki markaziy hukumat tomonidan ishga qabul qilinishlari, Malta va Islandiyada esa hukumat tarkibidagi ta'lim departamenti asosiy ish beruvchi funktsiyasini bajaradi.

Psixolog-mutaxassislarni ishga qabul qilinishi masalasida Yevropa mamlakatlarining deyarli barchasida pedagogik faoliyat va ta'lim tizimini boshqaruvchi organning mahalliy, munitsipal yoki provintsial bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu tarzda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi maktablarda psixologik xizmat tuman yoki viloyat psixologik-pedagogik markazlar shaklida faoliyat yuritadi.

O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim tizimida voyaga yetmaganlarning ruhiy salomatligini muhofaza qilish, pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu borada sohada faoliyat yuritayotgan psixologlarning o'rni muhimdir. Biroq tahlillar hozirda psixologik xizmat samaradorligiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazayotgan bir qator omillar mavjudligini ko'rsatmoqda. Yuzaga kelayotgan muammolarni to'g'ri hal etish bo'yicha kerakli qarorlarni qabul qilish va sohani rivojlantirishda horijning ilg'or tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Afsuski, jamiyatimizda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik, o'z joniga qasd qilish kabi holatlarning tez-tez uchrab turayotganligi ta'lim tizimidagi psixologik xizmat samaradorligini yanada oshirish lozimligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra 2022 yilda 26 ming 579 ta jinoyat yoshlar tomonidan sodir etilgan. Bunda 1,5 mingdan ortiq jinoyat maktab, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari xissasiga to'g'ri kelib, voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar soni 1 ming 430 tani tashkil etgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar orasida o'z joniga qasd qilish holati ham ko'payish tendentsiyasini ko'rsatmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ma'lumotlarga ko'ra suitsidga qo'l urgan biroq omon qolgan bolalar va o'smirlarning 70 % bu ishga asosiy sabab sifatida maktabdagi muammolarini ko'rsatishgan. Shuningdek, tadqiqotlar natijasiga ko'ra, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining 47% ota-onaning salbiy ta'siri yoki befarqligi natijasida, 14,8% oilada hamjihatlikning yo'qligida va 23,5% kattalarning loqaydligi tufayli sodir etilishi kuzatilgan.

Bundan tashqari, izlanishlarga ko'ra voyaga yetmaganlar tomonidan o'z joniga qasd qilish holatlarining 70-80% aslida o'zini o'ldirish emas, balki ota-onasini bir qo'rqitib qo'yish maqsadida amalga oshiriladi.

Maktablardagi psixologlar faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1) Bu lavozimda ishlayotganlar orasida oliy psixologik ma'lumot egalarining kamligi va xodimlar kasbiy malakasizligi bilan bog'liq holat kuzatiladi. Jumladan,

jami 9435 nafar psixologlardan 8959 nafari (94,9%) oliy ma'lumotga, 476 nafari (5,1%) o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lib, shundan 3738 nafari (39,6%) oliy psixologik, 5046 nafari (53,4%) oliy pedagogik, 651 nafari (6,8%) nopedagog ma'lumot ega xodimlardir.

2) Maktablarida o'quvchilar sonidan kelib chiqilmagan holda psixologlar shtat birliklarining nomaqbul tarzda taqsimlanganligi. O'zbekiston Respublikasi Halq ta'limi vazirining 2010 yil 26 apreldagi 141-sonli buyrug'iga asosan umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat uchun shtat birliklari 7-16 ta sinfli umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 0,5 stavka; 17 va undan ortiq sinf komplektli umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 1 stavka psixolog shtat birligi ajratilgan. 1-6 ta sinf komplektli umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun esa psixologik shtat birligi ajratilmagan.

Vaholanki, Respublikamizda 1000 dan ortiq o'quvchi o'qiyotgan maktablar soni 1000 dan ortiqni tashkil etsa-da, lekin umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat uchun shtat birliklari 0,5 stavka; 17 va undan ortiq sinf komplektli umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 1 stavka psixolog shtat birligi ajratilgan xolos (bu ma'lumot 2018-yilga oid). 1-6 sinf komplektli umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun esa psixologik shtat birligi ajratilmagan.

Maktablardagi psixologlar faoliyat (mashg'ulotlar, treninglar, so'rovlar) vaqtlarining yetarli darajada tartibga solinmaganligi tufayli psixolog o'z diagnostik va korreksion mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini kutib turishiga, ba'zan esa bunday bo'sh vaqtlar bo'lmaganligi sabab mashg'ulotlar sifatsiz o'tkazilishi yoki umuman o'tkazilmay qolishiga sabab bo'lmoqda.

Respublikamizda ta'limning aksariyat qismi 2 yoki 3 smena asosida olib borilishi inobatga olinsa, bu psixologlarga uchun vaqt bilan bog'liq qo'shimcha noqulayliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu o'rinda ma'lumot uchun: 2016-2017-o'quv yilidagi ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 3148 nafari (32,7%) bir smena asosida, 6465 nafari (67,2 %) ikki smena, 12 nafari (0,1%) uch smena asosida o'quv mashg'ulotlarini olib borganligini keltirish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi psixologlar oylik ish haqi miqdorlarining nisbatan kamligi ham maktablarda psixologik xizmati tashkil etishda ta'sirli omildir.

Eng yomoni ba'zan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologlar faoliyatiga ikkinchi darajali ish sifatida qaralishi bilan bog'liq salbiy munosabatni ham bir necha dalillar bilan asoslash mumkin, jumladan, ularga maktab direktori yoki direktor o'rinbosari - zavuchning yordamchisi yoki "yugurdagi" sifatida qarash. Bu holat esa ayrim hollarda psixologlarning maktab rahbariyati tomonidan berilayotgan o'z kasbiy vazifalariga aloqasi bo'lmagan boshqa topshiriqlar ijrochisiga aylanib qolishlariga olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablardagi psixologik xizmatning samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

1. Ba'zi xorijiy davlatlarda bo'lgani kabi hududlarda ta'lim tizimiga xizmat ko'rsatuvchi psixologik markazlarni tashkil etish va maktablarda faoliyat

yuritayotgan psixologlar shtat birliklarini maktabdan shu markaz ixtiyoriga o'tkazish maqsadli bo'ladi.

2. Psixologik xizmatni amalga oshirishda xodimlarning o'z vazifalariga nisbatan munosabatlari o'zgarishi, hududiy bo'limlarda psixologlarning o'zaro fikr almashishlari, professional muloqot olib borishlari, og'ir vaziyatlarni o'zaro maslaxatlashuv asosida hal qilishlari imkoniyatini yaratiladi. Chunki ba'zi xollarda uchrab turuvchi maktablarda psixologik xizmatga nisbatan ikkinchi darajali vazifa sifatida qaralishi va psixologlarning o'z asosiy vazifalarini bajarmay, maktab rahbariyati tomonidan beriluvchi o'z kasbiy vazifalariga aloqasi bo'lmagan topshiriqlarning ijrochisiga aylanib qolishlari oldi olinadi.

3. Bundan tashqari xorijiy mamlakatlar tajribasida bolalar va ularning otalari uchun muammolarni hal etishda yordam berishga mo'ljallangan "ishonch telefonlari" amaliyoti ham ular ruhiyatidagi buzilishlarga qarshi kurashishda yaxshi natijalar beradi.

Psixologik xizmat tizimlari Buyuk Britaniya (National Child Protection Helpline), Avstraliya (Kids Help line), AQSh (Childhelp National Child Abuse Hotline), Kanada, Vengriya, Keniya kabi bir qator xorijiy davlatlarda mavjud. Ularda ishonch telefonlari turli masalalar bilan bir qatorda bolalar psixikasida yuzaga kelgan tushkunlikni bartaraf etish va muammolarni to'g'ri hal qilishlarida ko'maklashadi. Masalan, Buyuk Britaniyada tashkil etilgan Childline ishonch telefoni xizmatiga 1986-yilda 34000 bola o'zining uydan ketib qolishi bilan bog'liq holat to'g'risida axborot bergan. Hozirda bu mamlakatda faoliyat yurituvchi National Child Protection Helpline ishonch telefoni xizmatiga bir yilda 250 000 qo'ng'iroq amalga oshiriladi. Bunday psixologik xizmatlar Buyuk Britaniya (National Child Protection Helpline), Avstraliya (Kids Help line) AQSh (Childhelp National Child Abuse Hotline) Kanada, Vengriya, Keniya kabi bir qator xorijiy davlatlarda samarali faoliyat olib boradi.¹

1. Oliy ta'lim muassasalarida psixologiya yo'nalishida kadrlar tayyorlashda psixologlar shtat birliklarini oliy psixologik ma'lumotga ega xodimlar bilan to'ldirish imkoniyati mavjud. Bu borada:

2. Maktablar uchun ajratiladigan psixologlar miqdorini maktabdagi o'quvchilar sonidan kelib chiqib belgilash amaliyotini joriy etish;

3. Maktablardagi psixologlar faoliyat (mashg'ulotlar, treninglar, so'rovlar o'tkazish) vaqtlarini belgilash;

4. Mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda maktab psixologining oylik ish haqlari miqdorlarni oshirish zarur.

5. Bunda maktablarda psixologlarning faoliyat vaqtlari belgilash orqali ularga o'z xizmat vazifalarini samarali bajarish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yosh avlod vakillarining psixologik salomatligini ta'minlash masalasida umumiy o'rta ta'lim tizimida yo'lga qo'yilgan psixologik xizmatning samarali faoliyat yuritishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirib o'tganimizdek, hozirda sohaning imkoniyatlaridan foydalanib yanada yaxshiroq natijalarga erishishga to'siq bo'layotgan bir qator salbiy omillar

¹ http://psyjournal.ru/drupal_journal/articles/telefon-doveriya-dlya-detey-i-roditeley-zarubezhnyy-opyt

mavjud. Bu kabi salbiy omillarni bartaraf etish va bu borada dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasidan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Активные методы в работе школьного психолога: Сб. науч. тр. //Под ред. И.В.Дубровиной. М.: 1990. – 180 с.
2. Баротов Ш.Р. Ўзбекистонда психологик хизмат ташкил этишнинг ижтимоий психологик ва илмий–амалий асослари: Пси. фан. док. ...дисс. – Бухоро: БухДУ, 1997. – 376 б.
3. Бодалев А.А., Ковалев Г.А. За системную организацию школьной психологической службы. // Вопр. психол. 1985. № 2. –С. 76–84.
4. Ғозиев Э. Таълим муассасаларида психологиянинг вазифалари // Халқ таълими ж., 1995. 12–сон, – Б. 25–34.
5. Дубровина И.В. Содержание работы психолога образования. // Мир психологии и психология в мире. 1995. №1(2). –С. 74–77.
6. Т.С.Леухина Личностные и организационные факторы развития психологической службы в образовании: Дис. канд. психол. наук. Казань. – 2000. – 195 с.
7. Практическая психология образования; Учебное пособие 4–е изд. / Под редакцией И. В.Дубровиной – СПб.: Питер, 2004. – 592 с.
8. Шоумаров Г.Б., Баротов Ш.Р. Республика Халқ таълими тизимида психологик хизмат муаммолари. Респ. Илм.–амал. Анж. Маъруз. Тез. Бухоро. 12–13 май 1995. –Б. 78–80.